

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROOSINI O'RGANISH MASALALARI xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

ALISHER NAVOIYNING "VAQFIYA" ASARIDAGI RUBOIYLAR TAHLILI

Dilshoda SHIRINOVA

O'zbekiston Milliy universiteti magistranti

<https://orcid.org/0009-0002-0453-6446>

DOI <https://doi.org/10.5281/zenodo.14804403>

Annotatsiya: "Vaqfiya" – badiiy asar. U nasr va nazm bilan yozilgan. "Vaqfiya"ning nasriy matosi g'oyat badiiy, u shoirning yuksak nasrnavislik mahoratini aks ettiradi. Yana u XV asrda Hirot adabiy muhitidagi o'zbek nasri to'g'risida tasavvur tug'diradi. "Vaqfiya"dagi ruboiylar nasriy mazmunning she'riy sharhidir. Ularning ta'sir kuchi zo'r. Har bir misrada shoirning ehtirosli qalb ovozi eshitilib turadi. Ularda bayon etilgan kayfiyat, ruh o'zining samimiyati va haqqoniyligi bilan ana shunday kuch kasb etgan. "Vaqfiya"dagi ruboiylar Navoiy nazmining uzviy bo'lagidirlar. Mazkur maqolamizda "Vaqfiya" asaridagi ayrim ruboiylarning ham shakliy, ham mazmuniy tahlilga tortdik.

Kalit so'zlar: Vaqfiya, sinkretik xarakter, hujjat, yuksak nasrnavislik, badiiy asar, shakliy, mazmuniy.

Аннотация: "Вакфия" — это произведение искусства. Оно написано в прозе и стихах. Прозаическая ткань "Вакфия" чрезвычайно художественна, она отражает высокое прозаическое мастерство поэта. Также дается представление об узбекской прозе в литературной среде Херата XV века. Рубаи в "Вакфия" представляют собой поэтические интерпретации прозаического содержания. Их влияние велико. Страстный голос поэта слышится в каждом стихе. Наследие и дух, выраженные в них, приобрели такую силу своей искренностью и правдивостью. Рубаи в "Вакфия" являются неотъемлемой частью поэзии Навои. В данной статье мы проанализировали как форму, так и содержание некоторых рубаятов в произведении "Вакфия".

Ключевые слова: Вакфия, синкремтический характер, документ, высокое письмо, художественное произведение, форма, содержание.

Abstract: "Vakfiya" is a work of art. It is written in prose and verse. The prose fabric of "Vakfiya" is extremely artistic, it reflects the poet's high prose writing skills. Also, it gives an idea about the Uzbek prose in the literary environment of Herat in the 15th century. Rubai's in "Vakfiya" are poetic interpretations of prose content. Their influence is great. The passionate voice of the poet is heard in every verse. The mood and spirit expressed in them gained such strength with its sincerity and truthfulness. Rubai's in "Vakfiya" are an integral part of Navoi's poetry. In this article, we analyzed both the form and the content of some of the Rubaiyats in the work "Vakfiya".

Key words: Vakfiya, syncretic character, document, high writing, artistic work, form, content.

"Vaqfiya" asarida o'n oltita ruboiy bor. Ular kitob mavzusi bilan bog'liq bo'lib, asar qahramoni, ya'ni shoirning ruhiy holatini bildiradilar. Xurosonda Sulton Husayn hokimiyati barqaror bo'ldi. Navoiy uzlat xayolida. Shu xayollarini bayon etib bo'lgach, shoir shunday xulosaga keladi: kishi nimani o'ylamasin, o'z taqdiridan chekinishi mumkin emas. Jon varaqida sen nimani tasvir etmoqchi bo'lsang, taqdir qalami uni o'zgartirib yuborishga qodir. Shu fikr quyidagi ruboiyda bayon etilgan:

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Sen jon varaqida bo‘yla aylab tahrir,

Ul safhada bu naqshni aylab tasvir.

Tag‘yir etar ermiss oni kilki taqdir,

Taqdir ishiga, rafiqlar, ne tadbir [1,252].

Bu ruboiyning taqtiyi quydagicha:

Birinchi, ikkinchi, to‘rtinchi misralarning chizmasi: -- **V/ V – V – /V** --- /~

Maf’uvlu / mafoilun / mafoiylun / fo‘, hazaji musammani axrabi maqbuzi solimi azall.

Uchinchi misraning chizmasi: -- **V/ V – – V/ V – V – /** ~

Maf’uvlu / mafoiylu / mafoilun / fo‘, hazaji musammani axrabi makfufi maqbuzi azall.

Ana shunday mantiqli, mazmundor yo‘l bilan shoir voqealar taraqqiyotini tasvirlaydi. Endigi ruboilyar faqat asar qahramonining kayfiyatini bildirib qolmaydi. Ular turmushning turli ko‘rinishlariga oid xulosalar, tajriba va tafakkurning yakunlarini izhor qiladi. Ular g‘oyat siqiq ifodalarda tasvir topgan. Shoir ishq va sadoqat to‘g‘risida so‘zlar ekan, ko‘ngilni bu ishqqa jon iplari bilan payvand qilishi kerakligini uqtiradi. Mabodo bunday ishqli ko‘ngilga o‘zganining xayoli tushguday bo‘lsa, unday ko‘ngulni yuz ming parcha qilib tashlamoq darkor. Ishq va sadoqat qonuni shu [2,26].

Har kimki, birov ishqiga bo‘lsa dilband,

Jon rishtasidin qilsa kerakdur payvand.

Gar g‘ayr xayoli tushsa ko‘ngliga pisand,

Qilmoq kerak ul ko‘ngilni yuz ming parkand [1.257].

Bu ruboiyning taqtiyi quydagicha:

Birinchi, uchinchi misralarning chizmasi: -- **V/ V – – V/ V – V – /** ~

Maf’uvlu / mafoiylu / mafoilun / fo‘, hazaji musammani axrabi makfufi maqbuzi azall.

Ikkinchi misraning chizmasi: -- **V/ V – – V/ V – – – /** ~

Maf’uvlu / mafoilun / mafoiylun / fo‘, hazaji musammani axrabi makfufi solimi azall.

To‘rtinchi misraning chizmasi: -- **V/ V – V – /V** --- /~

Maf’uvlu / mafoilun / mafoiylun / fo‘, hazaji musammani axrabi maqbuzi solimi azall.

Bir necha ruboilyar shoh xizmatini bajarish qoidalarini bildiradi. Oliy hokimiyat egasi bo‘lgan odam bilan yaqin bo‘lish oson emas. Bu xizmat kishidan ko‘p ziyraklik, vazminlik, andisha talab qiladi.

Shah xizmatig‘a biravki, bo‘lg‘ay moyil,

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Ko'r-u kar-u lang-u shal keraktur hosil.

Asrorining ifshosida gung aylasa til,

Bu mushkil erur, barchasidin bu mushkil [1.257].

Bu ruboiyning taqtiyi quydagicha:

Birinchi, ikkinchi misralarning chizmasi: -- V/ V - V - / V --- / ~

Maf'uvlu / mafoiylu / mafoilun / fo', hazaji musammani axrabi maqbuzi solimi azall.

Uchinchi misraning chizmasi: -- V/ V -- V/ V -- V / - ~

Maf'uvlu / mafoiylu / mafoiylyn / fauvl, hazaji musammani axrabi makfufi axtam.

To'rtinchi misraning chizmasi: -- V/ V -- V / V --- / ~

Maf'uvlu / mafoilun / mafoiylyn / fo', hazaji musammani axrabi maqbuzi solimi azall.

Navoiy "Vaqfiya"dagi ruboilyardan birida xalqparvarlik, adolatparvarlik g'oyalarini targ'ib etadi. Hirs-u havas xirmonini shamolga sovurmoq, shu bilan nafs-u havo kasrini buzib tashlamoq kerak. Zulm-u sitam yo'qqa chiqarilsagina el shod, mamlakat obod bo'ladi:

To hirs-u havas xirmani barbod o'lmas,

To nafs-u havo qasri barraftod o'lmas.

To zulm-u sitam jonig'a bedod o'lmas,

El shod o'lmas, mamlakat obod o'lmas [1.258].

Bu ruboiyning taqtiyi quydagicha:

Birinchi, ikkinchi, uchinchi misralarning chizmasi: -- V/ V -- V / V --- / -

Maf'uvlu / mafoiylu / mafoilun / fa', hazaji musammani axrabi maqbuzi solimi abtar.

Navoiy ana shu qoidalarga qattiq rioya qilib ish tutar edi. Bu to'g'rida yuqorida zulm tig'ini ushlatib, mazlum jarohatig'a intiqom marhamini qo'yanligi to'g'risida aytib o'tildi. Shoir adolat uyini bino qilmoq niyatida harakat qilganini yana bir ruboiyda bildirgan. Bu erda shoir o'zni parvonaga o'xshatadi. Parvona jonining kuyishiga qaramay, sham nuri atrofida o'raladi, unga talpinadi. Adolat va haqqoniyat shamingning nuriga shoir ham xuddi shunday parvona bo'lgan kishilardan edi [2.26].

Shah adli uyini aylayin deb ma'mur,

Sa'y ayladim ul qadarkim, erdi maqdur.

Har nechaki, tengridin etar sham'g'a nur,

Parvona erur joni kuyardin ma'zur[1.259].

Bu ruboiyning taqtiyi quydagicha:

Birinchi, ikkinchi misralarning chizmasi: -- V/ V - V - / V --- / ~

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Maf'uvlu / mafoiylu / mafoilun / fo‘, hazaji musammani axrabi maqbuzi solimi azall.

Uchinchi, to‘rtinchi misraning chizmasi: -- **V/ V -- V / V -- V / ~**

Maf'uvlu / mafoilun / mafoilun / fo‘, hazaji musammani axrabi makfufi azall.

Navoiyning barcha intilishlariadolat, haqqoniyatni barpo qilish maqsadida qilgan ishlari el xizmatida bo‘lmoq ishtiyoqidan kelib chiqar edi. Uning ko‘nglida boshqa hech qanday fikr, o‘y, g‘araz yo‘q. U o‘z faoliyati evaziga hech qachon hech narsa tama qilmagan, biror narsa kutmagan va kutmas ham edi. Shoirning bu xizmatdan topgani faqat mehnat va zahmat bo‘lgan. Bu fikrni shoir quyidagi ruboiyda bayon qiladi:

Eldin manga garchi g‘ayri zahmat yo‘q edi,

Ayb ermas agar muzd ila minnat yo‘q edi.

El berdilar, ammo manga rag‘bat yo‘q edi,

Shah davlatidin bularg‘a hojat yo‘q edi[1.260].

Bu ruboioyning taqtiyi quydagicha:

Birinchi, to‘rtinchi misralarning chizmasi -- **V/ V – V – / V – – V/ V –**

Maf'uvlu / mafoilun / mafoiylu / faal, hazaji musammani axrabi maqbuzi makfufi ajabb.

Ikkinci, uchinchi misralarning chizmasi -- **V/ V – – V/ V – – V / V –**

Maf'uvlu / mafoiylu / mafoiylu / faal, hazaji musammani axrabi makfufi ajabb.

Bu ruboioyning oxirgi misrasi Navoiyning o‘z shohidan minnatdorligi, uning xayr-u ehsonidan bahramand bo‘lib, yer-suv, mulkka ega bo‘lganiga ishoradir. Yana bu misra “Vaqfiya” Muqaddimotning ikkinchi bo‘lagi – Navoiyning bino qilgan imoratlari, ularning sanog‘i va ta’rifiga o‘tmoq uchun bir ko‘prik bo‘ldi.

Navoiyning shohga sadoqatiadolat va xalqparvarlikka sadoqatini bildirar edi. Chunki shoir o‘z shohini ana shu oliyanob maqsadlarni amalga oshiruvchi kuch deb bilgan. Bu e’tiqodning qanchalar amalga oshgan-oshmagani tarix saboqlaridan ayon. Navoiyning “Vaqfiya” asari xilma-xil ahamiyatga molik asar. U – dastavval Navoiyning tarjimai holi to‘g‘risida muhim ma’lumotlar beruvchi hujjat. Muqaddimadan o‘quvchi Xurosonda Sulton Husayn hukmronligi o‘rnatilgan vaqtida shoirning kayfiyati, ahvoli ruhiyasi qanday bo‘lgani to‘g‘risida aniq ma’lumot oladi. Navoiy uzlatga chekinmoqchi, dunyo ishlaridan chetlanmoqchi edi. Sulton yorlig‘i kelgach, u sidqidil bilan xizmat qildi. El nafini ko‘zlab ish tutdi, obro‘, e’tibor qozondi, mol-mulk egasi bo‘ldi. Mahdudot shu mulkdan tushgan daromadning to‘laligicha, ilm-ma’rifat uchun, mamlakat manfaatlari uchun ishlatilmog‘i maqsadida yozilgan hujjat. Uni agar qonunshunoslik, iqtisodshunoslik,

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

jamiyatshunoslik hamda matematika terminshunosligi bo'yicha ham tadqiq etilsa ko'p qiziqarli xulosalar chiqarish mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati

(Использованная литература / References):

1. Alisher Navoiy mukammal asarlar to'plami, 20 томлик 14-том. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fan" nashriyoti, Toshkent–1998. – 315 б,
2. Истиқлол даври ўзбек навоийшунослиги: 30 жилдлик / 2- жилд Ҳайитметов Абдуқодир: Навоийхонлик сұхбатлари; Абдуғафуров Абдурашид: Буюк бешлик сабоклари. "Tamaddun" Тошкент– 2021. – 348 б.
3. Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va poetika asoslari [Матн] – Тошкент: "Ta'lism-media" nashriyoti, 2019. –184 б.
4. Yusupova D. Aruz alifbosi: qo'llanma / – Toshkent: Akademnashr, 2015. – 136 б.
5. Колектив. Ўзбек адабиёти. II том (XV асрнинг иккинчи ярми). Тошкент, Ўзбекистон ССР "Фан" нашриёти, 1977, – 460 б.
6. Сирожиддинов С. Алишер Навоий: манбаларнинг қиёсий-типологик, текстологик таҳлили. — Тошкент: "Akademnashr", 2011. — 326 б, 63-бет.
7. Улугов А. - Тошкент: Muharrir nashriyoti, 2020. - 168 б. "Вакфия"- буюклик даломатномаси [Матн]:адабий-илмий нашр, – Тошкент.